

## **CHET TILI FANI O'QITUVCHISI FAOLIYATI TARKIBIDA TARBIYACHILIK KO'NIKMALARINING UYG'UNLASHUVI**

**Nurmatov Abdumannop Abduvahobovich-** O'zDJTU dotcenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotaciya:** Ushbu maqolada chet tili fani o'qituvchisida tarbiyachilik ko'nikmalarini shakllantirish, buning uchun muayyan nuqtai nazarlar yig'indisi, yaxlitligi, munosabatlar turini ajratish, bunday munosabatlar o'quvchilar bilan o'qituvchilar orasida muntazam tarzda vujudga kelishi, hozirgi zamon chet tili fani o'qituvchisining tarbiyachilik faoliyatiga innovasion jarayon sifatida qaralishi, bunday yondashuv asosida pedagogik faoliyat doirasida tarbiyachilikka oid ko'nikmalar uyg'unlashtirilish masalalari yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** chet tili fani o'qituvchisi, o'ziga xoslik, kognitiv va affektiv munosabatlar, innovasion jarayon, kasbiy faoliyat, nuqtai nazar.

### **HARMONIZATION OF EDUCATIONAL SKILLS IN THE STRUCTURE OF THE ACTIVITIES OF A FOREIGN LANGUAGE TEACHER**

**Nurmatov Abdumannop Abduvahobovich-** associate professor of UzSWLU, doctor of philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

**Annotation:** the formation of educational skills in a teacher of a foreign language in this article, the sum of certain points of view, integrity, separation of the type of relationship for this, the fact that such relationships occur regularly among students and teachers, are considered as an innovative process in the educational activities of a teacher of modern foreign language science, on the basis of this approach, issues of harmonization of educational skills in the framework of pedagogical activity are covered.

**Key words:** teacher of foreign language, identity, cognitive and affective relationships, innovation process, professional activity, point of view.

Har bir o‘qituvchi birinchi navbatda tarbiyachidir. Uning pedagogik faoliyati uzviy qismini yosh avlodni ma’naviy jihatdan shakllantirish vazifasi tashkil etadi. J.G‘.Yo‘ldoshev, S.Nishonova, O.Musurmonova, B.Ma’murov, O. S. Gazman, V. A. Petrovskiy kabi olimlarning ta’kidlashlaricha, tarbiyaning usullari, nuqtai nazarlar nafaqat jamiyat hayotining o‘ziga xos talablari bilan bog‘liq holda tarkib topadi, balki xalqning an’analari, davlatning siyosiy qurilishi, o‘qituvchining o‘ziga xos xarakteri, nuqtai nazarlari va turmush tarzi bilan ham bevosita bog‘liqdir. Jumladan, oilaviy hayoti, uning mehnatiga bo‘lgan haqqoniy munosabat, shaxslararo munosabatlari hamda unda shakllangan pedagogik madaniyat kabilar bunga misol bo‘la oladi. Shuning uchun ham, jamiyatimizda rang‘barang pedagogik nuqtai nazarlar vujudga kelmoqda. Chunonchi, ustoz-shogird munosabatlari, o‘quvchining shaxsiyatiga bog‘liq holda, bardoshli-oydinlashtiruvchi, hayotbaxsh, umidbaxsh, o‘quvchini manfaatdorlikka asoslangan holda tarbiyalash nuqtai nazari kabilar.

Shu bilan bir qatorda, chet tili fani o‘qituvchisida tarbiyachilik ko‘nikmalarini bu tarzda tavsiflash har doim ham to‘g‘ri bo‘lavermaydi. Buning uchun muayyan nuqtai nazarlar yig‘indisi, yaxlitligi, munosabatlari turini ajratish lozim. Bunday munosabatlari o‘quvchilar bilan o‘qituvchilar orasida muntazam tarzda vujudga keladi. Muayyan chet tili fani o‘qituvchining faoliyatidagi o‘ziga xoslik va bir xillikni inobatga olish lozim. Buning uchun, tasnifning o‘zaro o‘xhash jihatlarini tanlab olish talab etiladi. Mazkur jarayonda tarbiyaning yuksak maqsadini asos qilib olish zarur. O‘quvchining shaxs sifatida o‘ziga xoslik kasb etishiga ko‘maklashish, o‘z hayotiga ega bo‘lishini qo‘llab-quvvatlashda alohida hayotiy holatlarga inobatga olinmasligi kerak, balki vaziyatlar, hayotiy burilishlar, hayotning to‘liqligi kabilar ham inobatga olinadi.

Psixologlarning ta’biricha, shaxsni tushunish uchun uning hissiyotlarini anglash lozim. Bunda tarbiyachilik faoliyatining yaxlitligi muhim ahamiyatga ega. Har bir chet tili fani o‘qituvchisi o‘z faoliyatining maqsadga yo‘naltirilganligini ta’minlash uchun o‘zining harakatlari, kamchiliklarini anglab yetishi lozim.

O‘qituvchi o‘ziga e’tibor qaratar ekan, o‘zining xulq-atvori, faoliyati, turmush tarzi, kasbiy harakatlariga sinchkovlik bilan nazar tashlaydi.

Qadriyatli yo‘nalishlar o‘qituvchi qiziqishlarining ko‘rsatkichlari, ehtiyojlari, qarashlari va kasbiy rivojlanishini mujassamlashtiradi. Chet tili fani o‘qituvchisi tajribasining natijasi uning kelajakdagi faoliyati va xulq-atvorini belgilaydi. Har qanday fikr murakkab shaxsiy tajribaning tarkib sifatida dastlab o‘qituvchining o‘zida tug‘ilishi lozim. Agar o‘qituvchining o‘zida shaxsiy tajriba mavjud bo‘masa, u boshqa kasbdoshlarining tajribalaridan samarali tarzda foydalana olmaydi.

Biz zamonaviy pedagogik munosabatlar doirasida chet tili fani o‘qituvchisida tarbiyachilik ko‘nikmalarini tahlil qilar ekanmiz, birinchi navbatda uning o‘quvchilar bilan vujudga keladigan yoki maxsus o‘rnatadigan aloqalari, hamkorligi doirasini o‘rganamiz. Pedagoglar hamda psixologlar shaxslararo munosabatlar doirasini o‘rganar ekanlar, kognitiv, xulq-atvorga asoslangan hamda affektiv munosabatlar doirasini ajratadilar. Kognitiv munosabatlar doirasida subyektning obyektni anglashi nazarda tutilsa, xulq-atvorga asoslangan munosabatlarda faoliyatning natijasi va hatti-harakatlar tushiniladi. Affektiv munosabatlar doirasi esa, shaxsning holati bilan bog‘liq barcha ko‘rsatkichlarni mujassamlashtiradi. Jumladan, A. A. Bodalev shaxslararo munosabatlar doirasida tadqiqotchilik, amaliy hamda affektiv munosabatlarni ajratib ko‘rsatadi. Ya. A. Kolominskiy esa, o‘z tadqiqotlarida kognitiv, xulq-atvorga asoslangan, affektiv munosabatlar va ularning qismlari, B.F. Lomov tadqiqotlarida esa, boshqaruvchilik, affektiv va axborotli munosabatlarni ajratadi.

Hozirgi zamon chet tili fani o‘qituvchisining tarbiyachilik faoliyatiga innovasion jarayon sifatida yondashish taqozo qilinmoqda. Bu faoliyat o‘zida 3 ta muhim tarkibiy qismni mujassamlashtiradi: mustaqil fikrlash, ijodkorlikka asoslangan jarayonli hamda maylli-qadriyatli faoliyat ko‘rinishlari sifatida.

Tarbiya jarayonini fikrni shakllantiruvchi jarayon sifatida talqin etar ekanmiz, bunda ta’lim oluvchilar kasbiy tayyorgarlik jarayoniga jalb etiladilar.

Chet tili fani o‘qituvchisi o‘zining pedagogik faoliyati davomida olamni o‘z ongida aks ettirishi va uni tahlil qila olishi lozim. Bunda quyidagilarga alohida e’tibor qaratiladi:

- Ijtimoiy me’yorlar bilan bog‘liq bo‘lgan kasbiy yondashuvlar;
- Pedagogik faoliyat maqsadiga moslashtirilgan vaziyatli, funksional yondashuvlar;
- O‘qituvchining shaxsiy-kasbiy qiziqishlari, kasbiy faoliyati, tajribasini belgilovchi yondashuvlar.

Ta’lim jarayonida tarbiyaning tarkibiy qismlari o‘z aksini topadi. Bu holatlarni nazariy jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Amaliyotda bilimlarning shakllanishi ko’nikmalarning tarkib topishidan ayri holda talqin etilmaydi. Bu esa, subyekt-subyekt munosabatlari tarzida namoyon bo‘ladi. Bu munosabat doirasida chet tili fani o‘qituvchisi bilan o‘quvchi hamkorlikka kirishadi.

Biz quyida o‘quv-tarbiya jarayonida namoyon bo‘ladigan pedagogik madaniyatning ayrim ko‘rinishlari haqida fikr yuritishga harakat qilamiz. Pedagogik tafakkur paradigmasida chet tili fani o‘qituvchisining faoliyati o‘zbek xalqining yetakchi qadriyatlari va tafakkuriga tayangan holda tarkib toptiriladi. Bunday qadriyatlar va tafakkur tarzi o‘qituvchining ta’lim-tarbiyaviy faoliyatini boshqaradi va tartibga soladi.

O‘qituvchining pedagogik madaniyati haqidagi nazariy yondashuvlarni ilgari surgan ko‘plab tadqiqotlarda, jumladan, J.G’.Yo‘ldoshev, O.Haydarova, Sh.Mardonov, B.Raximov, B.Ma’murov, G.Boymurodova va boshqalarining ishlarida o‘qituvchi pedagogik faoliyati va tajribasining turli qirralari tahlil qilingan. Bular o‘qituvchining mustaqil fikrlash faoliyati, umumiyligi pedagogik faoliyati hamda o‘quvchilarga nisbatan hissiy-qadriyatli munosabatlaridir.

Bugungi kunda chet tili fani o‘qituvchisining o‘quv-tarbiya jarayonidagi pedagogik faoliyati natijalari sifatida quyidagilar e’tirof etilmoqda. Chet tili fani o‘qituvchisi faoliyati mohiyatini aniqlovchi ko‘rsatkichlar o‘quvchilar egallagan 3

turdagi natijalar bilan belgilanadi. Bu o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalari, ko‘p tarmoqli faoliyati hamda hissiy-qadriyatli munosabatlari, ya’ni axloqiy tajribalari sifatida namoyon bo‘lishi kerak.

Bugungi kunga kelib, har bir o‘qituvchi o‘zining ijtimoiy, kasbiy faoliyat tajribasi ta’lim-tarbiya natijasiga qay tarzda ta’sir etishini aniq bilishi lozim. Shu bilan bir qatorda, har bir o‘qituvchi o‘zining hissiy-qadriyatli yo‘nalishga ega bo‘lgan faoliyati doirasida o‘zi uchun ko‘proq ahamiyat kasb etadigan pedagogik faoliyat natijalarini ajrata olishi lozim. Har bir o‘qituvchining shaxsiy pedagogik madaniyatini aniqlovchi jarayon shakllarini belgilash ham muhim tashkiliy ahamiyatga ega. Bunda dastlab o‘qituvchining pedagogik nuqtai nazari, mazkur nuqtai nazarning turlarini aniqlash zarur.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, chet tili fani o‘qituvchisining pedagogik tajribasi qanchalik katta bo‘lsa, u shunchalik mustahkam pedagogik madaniyat va samarali natijaga ega bo‘ladi.

Chet tili o‘qituvchining mustaqil fikrlashga asoslangan nuqtai nazari uning pedagogik faoliyati rivojlanishida alohida ahamiyatga ega. Chet tili fani o‘qituvchilar orasida bugungi kunda ko‘p kuzatilayotgan nuqtai nazar mustaqil fikrlashga asoslangan nuqtai nazardir. Shuning uchun ham, o‘qituvchining fikriy-qadriyatli yondashuvga asoslangan faoliyatida yangi axborotlarni o‘zlashtirish va o‘quv-tarbiya jarayonini loyihalashga intilish muhim o‘rin egallaydi.

Mutaxassislarining e’tirof etishicha, bu ijtimoiy-pedagogik faoliyatning eng yorqin, tushunarli, zaruriy qismidir. Bu jarayonda ilmiy haqiqatlar asosida yangi g‘oyalar vujudga keladi va o‘qituvchi ularni o‘z faoliyatiga tadbiq etadi. Uning asosida obyektiv borliq haqidagi qadriyatli tasavvurlar o‘z ifodasini topadi. Bu tasavvurlar aniq tarixiy zaminga ega bo‘lib, o‘zining tasdig‘ini topgan, ilmiy jihatdan asoslangan, amaliy jihatdan sinovdan o‘tgan bilimlar, ijtimoiy hayot bilan o‘z tajribaga asoslangan samarali munosabat o‘rnatganligi bilan alohida ahamiyatga ega.

Muayyan kasb-hunar sirlarini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj insonni madaniyat va ma’naviy hodisalarga ko‘proq yaqinlashishga undaydi. Pedagogik faoliyatda tabiiy, ilmiy yondashuv o‘quvchiga shaxs sifatida yondashishni taqozo qiladi. Bunday yondashuv asosida pedagogik faoliyat doirasida tarbiyachilikka oid ko‘nikmalar uyg‘unlashtiriladi. Bu ayniqsa maktab ta’limiga xos xususiyatdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Газман О. С. Концептуальные основы содержания деятельности классного руководителя (классного воспитателя) // Вестник образования: Справ.-информ. изд. Министерства образования РСФСР. 1991. № 8. С. 2—40.
2. Йўлдошев Ж.Ф. “Педагогик технология асослари (халқ таълими ходимлари учун)” Тошкент.,-Ўқитувчи 2004 й.
3. Маъмуроев Б.Б. Ўқувчи шахсига йўналтирилган ўқув-билув жараёнини ташкил этишининг педагогик шарт-шароитлари: – Пед.фан ном.дисс.Автореф.– Тошкент, 2009. -24 б.
4. Мусурмонова О. Ўқитувчиларнинг маънавий маданиятини шакллантириш. –Тошкент: Фан, 1998. –112 б.